

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
97 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	



IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Qosimova Lola Sultanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: l.qosimova@udea.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining real sektoriga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan va aniqlangan, real sektordagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar tasniflangan va tavsiflangan hamda ushbu muammolarning mohiyati, sabablari, moliyalashtirishga ta'siri ochib berilgan. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda moliyalashtirish manbalariga bog'liq muammolar, huquqiy-me'yoriy va institusional muammolar hamda texnik-iqtisodiy va strategik muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya loyihalari, tijorat banklari, real sektor, yalpi ichki mahsulot, kredit qo'yilmalari, inflyasiya darajasi, milliy valyuta, kredit, o'z kapitali, qarz mablag'lari, uzoq muddatli kreditlar, kreditlarning foiz stavkalari, sindikatli kreditlar, loyihaviy moliyalashtirish, infratuzilma, davlat byudjeti mablag'lari, iqtisodiy samaradorlik, bank kafolati, moliyalashtirish manbalari, huquqiy-me'yoriy va institusional muammolar, texnik-iqtisodiy va strategik muammolar.

Abstract: This article examines and identifies problems associated with attracting investment in the real sector of the economy of Uzbekistan, classifies and describes problems associated with financing investment projects in the real sector, reveals the nature, causes and impact of these problems on financing. Problems associated with sources of financing investment projects, regulatory, institutional, as well as technical, economic and strategic problems are identified. Based on the results of the study, ways to overcome problems associated with financing investment projects in the real sector are proposed.

Keywords: commercial banks, real sector, gross domestic product, credit investments, inflation rate, national currency, credit, equity, borrowed funds, long-term loans, interest rates on loans, syndicated loans, project financing, infrastructure, state budget funds, economic efficiency, bank guarantee, sources of funding, legal, regulatory and institutional issues, technical, economic and strategic issues.

Аннотация: В данной статье исследованы и выявлены проблемы, связанные с привлечением инвестиций в реальный сектор экономики Узбекистана, классифицированы и описаны проблемы, связанные с финансированием инвестиционных проектов в реальном секторе, раскрыты сущность, причины и влияние этих проблем на финансирование. Выявлены проблемы, связанные с источниками финансирования инвестиционных проектов, нормативно-правовые, институциональные, а также технико-экономические и стратегические проблемы. По результатам исследования предложены пути преодоления проблем, связанных с финансированием инвестиционных проектов в реальном секторе.

Ключевые слова: коммерческие банки, реальный сектор, валовой внутренний продукт, кредитные вложения, уровень инфляции, национальная валюта, кредит, собственный капитал, заемные средства, долгосрочные кредиты, процентные ставки по кредитам, синдицированные кредиты, проектное финансирование, инфраструктура, средства государственного бюджета, экономическая эффективность, банковская гарантия, источники финансирования, нормативно-правовые и институциональные вопросы, технико-экономические и стратегические вопросы.

KIRISH

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan real sektor – bu moddiy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligini o'z ichiga oladigan tarmoqlar majmuidir. Real sektorning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi va milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartidir. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda real sektorni modernizatsiya qilish va rivojlantirish uchun investitsiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida (UNCTAD – United Nations Conference on Trade and Development) qayd etilishicha, "2024-yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini barqaror



rivojlantirish uchun muhim bo'lgan xalqaro loyihaviy moliyalashtirish 26 foizga kamaygan" [1]. Bunday holat aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining real sektoriga investitsiyalarni faol jalb qilish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda investitsion loyihalar faqat puxta ishlab chiqilgan, loyiha-smeta hujjatlari tayyor va moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan holda, asosan, Davlat investitsiya dasturlari asosida moliyalashtirilmoqda. Investitsion loyihalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" tashkil etilgan. Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat byudjeti, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, xalqaro moliyaviy institutlarning kreditlari, korxonalarning o'z mablag'lari faol jalb qilinmoqda. Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalariga bevosita xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, turli tarmoqlardagi sanoat loyihalari moliyalashtirilmoqda. 2030-yilgacha "Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash... Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish" [2] kabi ustuvor maqsadlarning belgilanganligi iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishning takomillashtirilishini taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar, global miqyosda investitsion loyihalarni moliyalashtirishga oid tendensiyalar va bu boradagi muayyan mamlakatlar tajribasi uzoq xorijlik olimlardan Ying Wang, Erkan Rehber, William B.Brueggeman, Jeffrey D.Fisher kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan [3].

Yaqin xorijlik olimlardan Yu.V.Shenayev, K.X.Zoidov, A.A.Urunov, G.A.Yusupova, S.N.Yashin, N.I.Yashina, Ye.V.Koshelev, S.E.Petyukov, M.V.Rayskaya kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida real sektorga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni tashkil etish va moliyalashtirishning nazariyasi va amaliyoti, konsessiya mexanizmi asosidagi loyihalarni moliyalashtirish, innovasion investitsiyalarini loyihaviy moliyalashtirish, investitsion loyihalarni kreditlashtirish, davlat-xususiy sheriklik va lizing asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish kabilar tahlil qilingan [4].

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan D.G'ozibekov, O.Sobirov, A.Muminov, O.Kuljonov, B.Tuxliyev, E.Nosirov, A.Burxanov, N.Karimov, O'.Haydarov, B.Mamatov, G.Bekimbetova, J.Razzaqovning ilmiy ishlarida investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, "yashil" loyihalarni moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari, investitsiya loyihalarini sindisiyalashtirilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish kabi masalalar tadqiq qilingan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni tadqiq etish maqsadida amaliyotda keng qo'llaniladigan bir necha tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tahliliy-sintetik metod. Xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlil qilindi va ular asosida real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolari sintez qilindi. Ilmiy manbalar asosida umumlashma xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, valyuta liberalizatsiyasi, soliq islohotlari, biznesni ro'yxatga olish va lisenziyalash tartiblarini soddalashtirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish kabi choralar ko'rilmogda. Shuningdek, mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan bo'lib, ularda investorlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratilgan. Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha agentlik faoliyat yuritmoqda, u xorijiy investorlarga O'zbekistonda biznes yuritish bo'yicha maslahatlar beradi va ularga yordam ko'rsatadi. Biroq, shunga qaramay, O'zbekistonda real sektorga investitsiyalar jalb qilishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

investitsiya muhitining yetarli darajada emasligi. Byurokratiya, korrupsiya, sud tizimining mustaqil emasligi va huquqlarning yetarli darajada himoya qilinmaganligi kabi omillar investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; infratuzilmani rivojlanganlik darajasining pastligi. Transport, energetika va aloqa infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va logistikani qiyinlashtiradi;


kadrlar malakasining yetarli darajada emasligi. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan va xalqaro standartlarga javob beradigan malakali kadrlarning yetishmasligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi;

mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligining pastligi: Mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligining pastligi ularni xorijiy investorlar uchun kam jozibali qiladi;



axborotning yetishmasligi. Xorijiy investorlarning O'zbekiston iqtisodiyoti, investitsiya imkoniyatlari va qonunchiligi haqidagi ma'lumotlarga yetarli darajada ega emasligi investitsiya qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Iqtisodiyotning real sektori mahsulotlar ishlab chiqarish, infratuzilmani rivojlantirish va xizmatlar ko'rsatish sohalarida iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi va ushbu sohaning samarali rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiya loyihalarining samarali va maqsadli moliyalashtirilishiga bog'liq. Biroq amaliyotda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham bu jarayon qator muammo va to'siqlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Uning asosiylari quyidagilardan iborat (1-rasm):



1–rasm. Iqtisodiyotning real sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar¹

1. Moliyalashtirish manbalariga bog'liq muammolar.

1.1. Kapital bozorining rivojlanmaganligi. Real sektordagi loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri – bu kapital bozorlaridir. Ammo, ko'plab mamlakatlarda, xususan O'zbekistonda ipoteka, obligatsiya va aksiyalar bozori, IPO (Initial Public Offering) – bu kompaniya aksiyalarining fond birjasida birinchi joylashtirilishi) va ventur moliyalashtirish amaliyoti hali rivojlanmagan. Investorlar uchun yetarlicha likvidlik kafolatlari yo'q. Bunday sharoitda biznesni moliyalashtirishning yagona manbasi sifatida banklar asosiy o'rinni egallaydi.

1.2. Bank kreditlarining yuqori narxi va murakkabligi. Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar ko'pincha yuqori foiz stavkalariga ega (O'zbekistonda 2024-yilda o'rtacha 24–28% atrofida). Kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlashtirish murakkab va uzoq jarayon. Loyihalarni baholash mezonlari shaffof emas. Natijada, biznes vakillari kredit olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, ayniqsa rentabelligi uzoq muddatda namoyon bo'ladigan loyihalar uchun.

1.3. Valyutadagi investitsiya va kurs o'zgarishi bilan bog'liq omillar. Xorijiy sarmoyadorlar ko'pincha valyutada investitsiya qiladi. Ammo, milliy valyuta kursining keskin o'zgarishi ichki loyihalarning foydaliligiga tahdid soladi. Valyutadagi qarzlarni ichki bozorda xizmat ko'rsatayotgan biznes uchun katta xatar tug'diradi. Oqibatda, sarmoyadorlar valyuta risklaridan cho'chib, loyihalarni moliyalashtirishdan tiyladi.

2. Huquqiy-me'yoriy va institusional muammolar.

2.1. Loyiha xavfini samarali baholash mexanizmlari yo'q. Xavfni boshqarish va baholash bo'yicha maxsus institutlar yetarli emas. Banklar va moliya muassasalari loyihalarni baholashda ehtiyotkor va konservativ yondashuvni qo'llaydi. Natijada, yangi, innovasion yoki texnologik loyihalar yetarlicha moliyalashtirilmaydi.

2.2. Byurokratik to'siqlar. Loyihalarni amalga oshirish uchun kerakli ruxsatnomalarni olish jarayoni surunkali. Davlat idoralari o'rtasidagi muvofiqlashtirish yetishmasligi jarayonlarni cho'zadi. Natijada, investorlar uchun "tashqi xarajatlar" ko'payadi, loyiha amalga oshirish muddati uzayadi yoki o'z muddatida amalga oshirilmaydi.

2.3. Investor huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining yetishmasligi. Sudlar ishonchli emas, biznes va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilish tizimi sust. Xususiylar mulkni himoya qilish kafolatlari amalda to'liq ta'minlanmaydi. Oqibatda, sarmoyadorlar investitsiya xavfini yuqori deb baholab, loyihalarga kirishishdan bosh tortadi.

3. Texnik-iqtisodiy va strategik muammolar.

3.1. Investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslari puxta ishlab chiqilmaydi. Biznes-rejalar ko'pincha real hisob-kitoblarga emas, ehtimoliy taxminlarga asoslangan. Loyihalarda ishlab chiqarish hajmi, bozor tahlili

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yoki raqobat muhiti inobatga olinmaydi. Natijada, moliyalashtiruvchilar bunday loyihalarga ishonmaydi va mablag' kiritishdan bosh tortadi.

3.2. Loyiha infratuzilmasining yetishmasligi. Ko'pgina hududlarda zarur infratuzilma (elektr, gaz, suv, transport) yo'qligi loyihalar samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa investor qo'shimcha infratuzilma qurilishi uchun xarajat qilishga majbur bo'ladi, bu esa loyihaning umumiy qiymatini oshiradi. Masalan, 2023-yilda Toshkent viloyatidagi kichik sanoat zonalarida jami 127 ta loyiha moliyalashtirishga taklif etildi, ammo ulardan faqat 43 tasi banklar tomonidan moliyalashtirilgan. Baholash sabablari: 30 foiz loyihalarda biznes-reja yetarlicha asoslanmagan; 25 foiz loyihalarga zarur infratuzilma yo'qligi aniqlangan; 15 foiz loyihalarda garov ta'minoti yetarli emas. Bundan ko'rinadiki, ta'lim, maslahat va texnik yordam yetishmasligi tufayli ko'pgina loyihalar moliyalashtirishdan mahrum bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotning real sektorida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bunday loyihalar, ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovasion yechimlarni joriy etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi. Investitsiya loyihalarini orqali infratuzilma takomillashadi, hududiy rivojlanish ta'minlanadi va xususiy sektor faolligi orttiriladi. Ularning samarali amalga oshirilishi uchun qulay investitsiya muhiti, huquqiy kafolatlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va malakali kadrlar muhim ahamiyatga ega. Shu bois, iqtisodiyotning real sektorida investitsiya loyihalarini yanada rag'batlantirish va strategik yo'nalishlarda yo'naltirilgan loyihalar portfelini shakllantirish–iqtisodiy islohotlarning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda quyidagi muammolar mavjud: real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalariga bog'liq muammolar; real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning huquqiy-me'yoriy va institusional muammolari; real sektordagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning texnik-iqtisodiy va strategik muammolari.

Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish, investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolarni bartaraf etilishida quyidagi taklif va tavsiyalarga alohida e'tibor qaratilishi zarur:

foizlar bo'yicha subsidiyalar joriy etish (real sektordagi strategik loyihalar uchun kredit foizlarining ma'lum qismini davlat tomonidan subsidiyalash);

maxsus investitsiya jamg'armalari tashkil etish (davlat-xususiy sheriklik asosida uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlash);

kichik va o'rta biznes uchun kafolat mexanizmlarini kengaytirish (bank kreditlarini kafolatlash jamg'armalari orqali risklarni kamaytirish);

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish (Islomiy moliya, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki kabi manbalardan foydalanish);

investitsiya qonunchiligini to'liq inventarizatsiya qilish (ziddiyatli va investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan normalarni bekor qilish);

institusional islohotlar (investitsiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona organ tashkil etish (masalan, "Yagona investitsiya markazi"));

soliq va bojxona imtiyozlarini raqamlashtirish (sarmoyadorlarga qulay onlayn platforma orqali murojaat va olish imkoniyati);

investorlar huquqini himoya qilish bo'yicha maxsus sud organlari tashkil etish;

loyiha oldi konsalting markazlari tashkil etish (loyihaning texnik-iqtisodiy asosi va biznes-rejalarni ishlab chiqishda tadbirkorlarga maslahat berish);

innovasion loyihalarga davlat grantlari berishni kengaytirish;

investitsiya loyihalarini baholash va reytinglash milliy tizimini joriy etish (ularning samaradorligini aniq baholash va saralab moliyalashtirish);

texnologik modernizatsiya dasturlari (yuqori texnologiyali uskunalar va innovasion yechimlarga sarmoya kirituvchi loyihalarga ustuvorlik berish).

Real sektordagi investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun moliyaviy, huquqiy va texnik-iqtisodiy mexanizmlarni kompleks ravishda takomillashtirish zarur. Buning uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro institutlar o'rtasida samarali hamkorlik tizimi yaratilishi shart.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Доклад ООН за 2025 год предупреждает: глобальные инвестиции не соответствуют целям устойчивого развития - Sigma Earth
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 45 va 49-maqсадlar.
3. Ying Wang. Financing and investing in sustainable infrastructure: A review and research agenda; Erkan Rehber. Financial Analysis of the Investment Projects. January 1999 (FinancialAnalysisoftheInvestmentProjects (1).pdf); Darja Zabavnik, Miroslav Verbič. Relationship between the financial and the real economy: A bibliometric analysis. International Review of Economics & Finance Volume 75, September 2021, Pages 55-75. (Relationship between the financial and the real economy: A bibliometric analysis - ScienceDirect); William B.Brueggeman, Jeffrey D.Fisher. Real Estate Finance and Investments. Seventeenth Edition. Published by McGraw Hill LLC, 1325 Avenue of the Americas, New York, NY 10121. Copyright ©2022 by McGraw Hill LLC. All rights reserved. Printed in the United States of America. – 833 p. (9781260734300.pdf).
4. Шенаев Ю.В. Проектное финансирование как эффективная форма кредитования инвестиционных проектов. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – М.: Московский банковский институт, 2006. – 28 с.; Зоидов К.Х., Урунов А.А., Юсупова Г.А. Теоретико-методологические аспекты оценки и реализации инвестиционного проекта. Монография. – М.: ИПР РАН, 2021. – 159 с.; Яшин С.Н., Яшина Н.И., Кошелев Е.В. Финансирование инноваций и инвестиций предприятий: Монография. – Нижний Новгород: ВГИПУ, 2010. – 245 с.; Петюков С.Э. Финансирование инвестиционных проектов в электроэнергетике с использованием механизма государственно-частного партнерства. – М.: Проспект, 2020. – 191 с. Райская М.В. Эффективность финансирования инновационно-инвестиционной деятельности предприятия на основе механизма лизинга. – Казань: Казанский национальный исследовательский технологический университет, 2020. – 104 с.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – 332 b.; G'ozibekov D.G', Sobirov O.Sh., Muminov A.G., Kuljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2004. – 308 b.; Tuxliyev B.K. Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. Avtoref. – T.: TDIU, 2021. – 70 b.; Nosirov E.I. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida "yashil" loyihalarni moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. diss. Avtoref. – T.: TDIU, 2021. – 74 b.; Burxanov A.U. Moliya bozori va investitsiyalar. Darslik. – T.: Ma'naviyat, 2021. – 528 b.; Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.; Haydarov O'.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. diss. Avtoref. – T.: TDIU, 2020. – 62 b.; Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. - 608 b.; Bekimbetova G.M. Korxonalar innovasion faoliyatini rivojlantirish sharoitida investitsiya loyihalarini baholash samaradorligini oshirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. diss. Avtoref. – T.: TDIU, 2020. – 54 b.; Razzaqov J.X. Investitsiya loyihalarini sindisiyalashtirilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. diss. Avtoref. – T.: TDIU, 2020. – 64 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100